

IKKI TOJ, IKKI QALAM

Axmadjonova Mumtozbegin

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti professori,

pedagogika fanlari doktori

axmadjonovam899@gmail.com

Orcid: 0009-0000-0846-5652

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21767363>

Annotatsiya: Tarix zarvaraqlariga nazar tashlar ekanmiz bir qo'lida saltanat toji hamda ikkinchisida adabiyotning nafis qalamini tutgan sultonlarga alohida e'tibor qaratilganini ko'ramiz. Podshohlardagi ushbu iste'dod nafaqat tarixchilar, balki adabiyotshunos olimlarni ham tahlil va tadqiqga undovchi asosiy omildir. Maqolada o'zbek adabiyotida durdona asarlari bilan yorqin iz qoldirgan Boburiylar sulolasining ilk sultoni Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati, uning Hindiston ijtimoiy-madaniy hayotiga ta'siri, badiiy adabiyot namunalari borasida fikr-mulohazalar keltirilgan, shuningdek, jahon adabiyotida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan, san'atga shunchaki homiylik qilgan emas, balki faol, sermahsul yozuvchi, fidoiy shoir, ilohiyotshunos va adabiyotshunos olim qirol Yakob I Styuart shaxsi, hukmronlik davri, adabiy faoliyati haqida ham alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Yakob I Styuart, "Boburnoma", "King's Gift".

Abstract: Examining the pages of history, it becomes evident that special attention is drawn to monarchs who held the crown of statehood in one hand and the refined pen of literature in the other. This dual talent in rulers serves as a primary catalyst prompting in-depth analysis and research by both historians and literary scholars. This article examines the activities of Zahiriddin Muhammad Babur—the founder of the Baburid dynasty, who left an indelible mark on Uzbek literature with his masterpiece works—focusing on his impact on the socio-cultural life of India and his literary contributions. Furthermore, it highlights the persona, reign, and literary enterprise of King James I Stuart, a distinctive figure in world literature who was not merely a patron of the arts, but an active, prolific writer, dedicated poet, theologian, and literary scholar.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur, James I Styuart, "Baburnama", "Basilikon Doron" ("King's Gift").

Аннотация: Обращаясь к страницам истории, можно заметить, что особое внимание уделяется монархам, сочетавшим в себе бремя управления государством и тонкое литературное мастерство. Подобный синтез государственного и творческого талантов служит ключевым фактором, побуждающим к исследованию как историков, так и литературоведов. В данной статье анализируется деятельность Захириддина Мухаммада Бабура — основателя династии Бабуридов, оставившего яркий след в узбекской литературе своими шедеврами, его влияние на социально-культурную жизнь Индии, а также его художественное наследие. Кроме того, особое внимание уделено личности короля Якова I Стюарта — видного представителя мировой литературы, который не просто покровительствовал искусству, но и являлся активным, плодотворным писателем, поэтом, богословом и литературоведом, а также особенностям периода его правления и литературной деятельности.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабура, Яков I Стюарт, «Бабура-наме», «Basilikon Doron» («Царский подарок»).

Kirish

Jahon adabiyoti tarixida siyosiy hokimiyat cho'qqisida turib, ayni paytda qalam va tafakkur olamida ham tengsiz iz qoldirgan hukmdorlar kamdan-kam uchraydi. Bunday noyob siymolardan ikki toj, ikki qalam egalari — Zahiriddin Muhammad Bobur Boburiylar imperiyasining asoschisi, sarkarda va yozuvchi hamda Yevropa Uyg'onish davrining yorqin vakili, Shotlandiya va Angliya qiroli Yakob I Styuart (James I va VI) Styuartlar sulolasining ilk podshohidir. Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashganda, bu ikki monarxning ijodi o'xshash jihatlari bilan bir qatorda, tarixiy-madaniy muhit ta'sirida shakllangan o'ziga xos qutblari bilan ham e'tiborni tortadi.

Adabiyotlar tahlili

Biz tadqiqot olib borishda asosiy e'tiborni professor Najmiddin Nizomiddinov yondashuviga qaratdik. Muarrixning "Buyuk Boburiylar tarixi (XVI-XIX asr)" nomli monografiyasida Bobur shaxsi va adabiy merosiga tarixiy manbalarga tayanilgan holda, hujjatli dalillar, adabiy manbalar va yozma yodgorliklarning chuqur tahliliga asoslangan ilmiy munosabat yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek, Qirol Jeyms VI va I ning adabiy merosini o'rganish bo'yicha bir qancha taniqli tarixchilar, adabiyotshunoslar va matnshunoslar tadqiqotlar olib borishgan, jumladan, Jenni Vormaldning "Jeyms VI va I: Ikki qiroلمي yoki bitta?" ("James VI and I: Two Kings or One?", 1983) nomli maqolasi zamonaviy ilmiy doiralarga Jeymsning intellektual va adabiy merosiga Renessans davrining yuksak mahsuli sifatida jiddiy yondashishni boshlashiga turtki bergan. Keyinchalik, britaniyalik tarixchi Kevin Sharp Styuartlar davri siyosiy madaniyati hamda Jeyms o'zining qirollik qiyofasini boshqarish uchun matbuot va jamoatchilik oldidagi namoyishlardan qanday foydalangani ustida tadqiqot olib borgan.

Taniqli amerikalik adabiyotshunos, Shakespeare hamda Yakob davri (Yacobeian era) drama teatri va madaniyati bo'yicha yetakchi mutaxassis Devid Berjeronning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlari alohida ahamiyatga egadir. Uning 1991-yilda nashr etilgan "Royal Family, Royal Lovers: King James of Scotland and England" nomli asarida Qirol James I va uning oilasi, shuningdek, shaxsiy munosabatlari va saroy hayotining adabiy-tarixiy talqini haqida qimmatli ma'lumotlarni bergan. Adabiyotshunoslar Piter C. Herman, Morna R. Fleming va Sara M. Dannigan Jeymsning she'riyatini, uning shotland tilidagi dastlabki adabiy merosini tadqiq qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ikki xil sivilizatsiya, ikki xil madaniy muhit vakillari bo'lgan Yakob I styuart hamda Zahiriddin Muhammad Boburning ijodiy merosini o'xshash va farqli jihatlari asosida qiyoslanadi. Ularning avtobiografik, memuar yo'nalishdagi asarlari, siyosiy publisistikasi tahlil qilinadi. Ikki turli olam hukmdorlarining ijodini bir-biriga qarama-qarshi qo'ymasdan, balki ularning jahon adabiyoti xazinasidagi o'rni uyg'unlashtiriladi.

Tahlillar va natijalar

Ayni davrda O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, uning ko'p qirrali jihatlari tahlil qilish, xorijiy mamlakatlar tili, madaniyati va adabiyotini o'rganish hamda tadqiq etish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Ma'lumki, Sharq va G'arb adabiyotlari o'rtasidagi aloqalar, avvalo, tarixiy hodisa sanaladi. Insoniyat tarixida davlat tepasida turish bilan birga, badiiy ijod va tafakkur olamida ham

o'chmas iz qoldirgan Sharq va G'arb sivilizatsiyalarining tarixiy taraqqiyotiga birdek ta'sir ko'rsatgan hukmdorlar kamdan-kam uchraydigan noyob hodisadir.

Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo'li shiddatli siyosiy kurashlar, fojiali yo'qotishlar va ulkan bunyodkorliklar bilan to'la murakkab davrga to'g'ri keladi. 1494-yilda otasining fojiali vafotidan so'ng, atigi 12 yoshida Farg'ona taxtiga o'tirdi. Temuriylar o'rtasidagi o'zaro taxt talashish urushlari, Shayboniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbek qabilalarining hujumlari Bobur uchun og'ir sinov bo'ldi. U bir necha bor Samarqandni qo'lga kiritishga urinib, qisqa muddatlarga muvaffaqiyat qozongan bo'lsa-da, siyosiy kuchlar nisbati teng kelmagach, o'z (ota-bobolar) yurtini tark etishga majbur bo'ldi. Keyinchalik Hindistonni zabt etib, Hindistonda uch asrdan ko'proq hukmronlik qilgan Boburiylar saltanatiga asos soldi.

Yevropa Uyg'onish davri va XVII asr boshlarida Angliya va Shotlandiya taxtlarini birlashtirgan ilk monarx Yakob I Styuart adabiy-siyosiy muhitda o'zining yorqin shaxsiyati, ilohiyot va falsafaga bo'lgan chuqur qiziqishi, shuningdek, davlatni boshqarish bo'yicha yozgan fundamental asarlari bilan ajralib turuvchi nafaqat amaldagi siyosiy rahbar, balki o'z davrining yetakchi publitsistlari, shoirlari va mutafakkirlaridan biri sifatida tarixda iz qoldirgan eng yirik siymolardan biridir.

Ushbu shaxslarning adabiy-estetik faoliyati quyidagi to'rtta asosiy mezon asosida tahlil etamiz:

1. Avtobiografizm va xotiraning badiiy talqini.

Ikki hukmdorning adabiyotga qo'shgan eng buyuk hissasi ularning shaxsiy kechinmalari va hayot yo'lini badiiy-hujjatli til bilan abadiylashtirganidadir.

Bobur yaratgan "Boburnoma" jahon avtobiografik nasrining cho'qqisi hisoblanadi. Unda muallif o'zining muvaffaqiyatlari bilan birga mag'lubiyatlarini, ruhiy tushkunliklari va kechinmalarini mutlaq samimiyat bilan qog'ozga tushirgan. Asar faqat shaxsiy xotira emas, balki keng qamrovli tarixiy-geografik ensiklopediyadir. Jeyms I esa o'zining shaxsiy avtobiografiyasini yozmagan bo'lsa-da, uning siyosiy travestiyalari va o'g'li shahzoda Genri Frederik uchun yozilgan "Basilikon Doron" risolasi muallifning ichki dunyosi, davlatni boshqarish falsafasi va pedagogik qarashlarini ochib beruvchi chuqur subyektiv matnlardir. Jeyms o'z shaxsini monarxik institut va ilohiy huquqlar orqali namoyon etgan bo'lsa, Bobur o'z shaxsini insoniy zaifliklar va intilishlar prizmasidan ko'rsatdi.

2. She'riyat va estetik tamoyillar (Poetika va nazariy tahlil).

Ikki hukmdor ham she'riyatni shunchaki ko'ngilxushlik emas, balki yuksak intellektual faoliyat deb bilgan. Bobur turkiy va forsiy tillarida baravar ijod qilgan lirik shoir edi. Uning g'azal, ruboiy va tuyuqlari o'zining nafisligi, samimiyligi hamda chuqur falsafiy-lirik mazmuni bilan ajralib turadi. Ayniqsa, vatandan judalik ohanglari uning she'riyatining bosh mavzusidir. Shuningdek, uning "Aruz risolasi" asari nazariyotchi olim sifatidagi salohiyatini ko'rsatadi. Jeyms I esa Shotlandiya saroyida Kastaliya guruhining faol a'zosi sifatida she'riyatni rasmiy va mafkuraviy darajaga ko'tardi. Uning "Shotland she'riyatida amal qilish va qochish kerak bo'lgan qoidalar" risolasi adabiy tanqid va poetika bo'yicha Yevropadagi ilk monarxik qo'llanmalardan biridir. Jeyms she'riyatni davlat va madaniyatni tartibga solish vositasi sifatida ko'rgan bo'lsa, Bobur uni ruhning og'riqlarini davolovchi va ilohiy muhabbatni tarannum etuvchi ma'naviy manba deb bildi.

3. Siyosiy risolar va mafkuraviy meros (Publitsistik va qiyosiy-tipologik tahlil)

Adabiyotshunoslikda publistika va siyosiy risola ham adabiy janr sifatida muhim o‘rin tutadi. Bu borada ikki hukmdorning yondashuvi turlichadir:

Jeyms I siyosiy publitsistikaning ustasi bo‘lib, “Erkin monarxiyalarning haqiqiy qonuni” va “Basilikon Doron” asarlari orqali Yevropada “mutlaq monarxiya” va “qirolning ilohiy huquqi” konsepsiyasini adabiy-falsafiy jihatdan asoslab berdi. uning asarlari xalqaro miqyosda bestsellerga aylandi.

Bobur esa siyosiy g‘oyalarni nazariy traktatlar orqali emas, balki bevosita hayotiy amaliyoti va xotiralari “Boburnoma” asari orqali ifoda etdi. Uning asarlarida hokimiyatga intilish, Temuriylar saltanatining vorisligini saqlab qolish uchun qilingan mashaqqatli kurash sifatida gavdalanadi.

4. Diniy-axloqiy va madaniy ta’sir (Sivilizatsiyalararo muloqot mezon)

Jeyms I madaniy tarixda o‘zining bevosita homiyligi ostida yaratilgan “Qirol Jeyms Injili” (1611) bilan abadiy qoldi. Uning tili, ohangi va poetik kuchi ingliz adabiyoti va madaniyatiga asrlar davomida ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, uning jodugarlikka qarshi “Daemonologie” asari davrning ijtimoiy-madaniy tafakkurini aks ettirdi.

Bobur esa Islom olamida ma’rifat, adolat va nafis san’at homiysi sifatida tanildi. U faqat ijodkor emas, balki Alisher Navoiy asos solgan adabiy muhitning davomchisi va rivojlantiruvchisi bo‘ldi. Uning asarlari Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi madaniy ko‘prikn barpo etdi.

Xulosa

Adabiy-qiyosiy nuqtai nazardan qaraganda, Zahiriddin Muhammad Bobur va Jeyms I va VI ikkita mutlaqo boshqa sivilizatsiya va dunyoqarash vakillari bo‘lsalar-da, ularni bitta mushtarak nuqta birlashtiradi: ikkisi ham qalamni qilichdan kam bo‘lmagan qurol va meros qoldirish vositasi deb bilgan.

Jeyms I — g‘arb Uyg‘onish davrining intellektual qirol, til va qoidalar me’mori, siyosiy publitsistika va diniy tarjimaning homiysi sifatida tarixga kirdi.

Bobur — sharqona nafasat va hayotiylikni o‘zida mujassam etgan, qalb kechinmalarini qog‘ozga muhrlagan chinakam xalqchil yozuvchi, avtobiografik janrning dahosi va lirik shoir sifatida e’tirof etildi.

Ularning merosi shuni ko‘rsatadiki, haqiqiy iste’dod uchun taxt va toj shunchaki ijod uchun minbar bo‘lib xizmat qilishi mumkin, xolos.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O‘zRFA Fan, 2009.– 247 b.
2. Boburnoma. Kulliyot. 6-jild. – Toshkent: 2021. – 424 b.
3. Boltaboyev H. Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasining adabiy-ma’naviy merosi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021. – 215 b.
4. Nizomiddinov N. Buyuk boburiylar tarixi (XVI-XIX asr). –T.: Fan, 2012. – 516 b.
5. Bergeron, David M. Royal Family, Royal Lovers: King James of Scotland and England. — Columbia: University of Missouri Press, 1991.
6. Herman, Peter C. Royal Poetrie: Monarchic Verse and the Political Imaginary of Early Modern England. — Pittsburgh: Duquesne University Press, 2010.